

11- Mavzu: Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash.

Reja:

1. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash turlari.
2. Yumshoq o'yinchoqlarning bola tarbiyasida ahamiyati.

1. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash turlari

Maktabgacha ta'lim muassasalarida turli o'yinchoqlar mavjud bo'lib ular bolalarning bo'sh vaqtlarining to'g'ri tashkil qilish, fikrlarini o'stirish, dunyoqarashlarini kengaytirish asosidir. Hozirgi paytda yumshoq o'yinchoqlarga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Shunga ko'ra biz maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari ishlarini yengillashtirish maqsadida asosan qo'g'irchoq teatri to'garaklarida qo'llanib kelayotgan o'yinchoqlar namunasini e'tiboringizga havola etamiz. Bu o'yinchoqlar tarkibiga, bezaklariga sharoitidan kelib chiqib va tarbiyachi mahortiga ko'ra ayrim o'zgarishlar kiritishlari mumkin.

O'yinchoqlarni berilgan katakchalar yordamida 2,3,4 va bir necha marta kattalashtirib andozani unga ko'ra tayyorlash mumkin. Tikish usullarini ignani ichkaridan olib, e'tibor berib tikiladi. Har bir o'yinchoqning qismlari bir-birga tikilgach, ichki qismlarini tashqariga ag'darishini unutmang. Uning ichiga esa gazlama bo'laklari, qiyqimlar, paxta tikilishi mumkin. Ayrim o'yinchoqlarning old va orqa oyoqlari mahkam turishi uchun simdan foydalaniladi. Ko'z, shoxchalarni yog'ochdan ham tayyorlash mumkin.

Ba'zan ko'z sifatida chiroyli tugmachalardan ham foydalanish tavsiya etiladi. Bu detallar kartondan yasaladigan bo'lsa, guash, akvarelda bo'yalib, ustidan lak qoplanadi. Kerakli asboblari:

1. Ignalarning turli katta kichiklari;
2. G'altakli iplar, turli rangdagi №10,40,50, 60 li qalinligi har-xil iplar.
3. Rangli iplar, turli rangdagi ipakli iplar va dag'al iplar.
4. Qaychi 6 dona, loydan yasashda ishlatiladigan tayoqcha.
5. Bigiz uzuni, ombir 1 dona.
6. Yog'ochli, temirli tayoqcha (paxta to'ldirish uchun)

7. Rangli oddiy qalamlar, rasm chizish uchun mo'yqalamlar.
8. Tikuv mashina, har xil kattalikdagi igna.
9. Doiraviy ombir 2 dona, yumshoq jag'li ombir, o'tkir jag'li ombir.
10. Dumaloq yog'och (paxta tikish uchun)
11. Angishvona, dazmol.

Ashyolar:

Yumshoq o'yinchoq uchun iloji boricha yangi mato yoki avvaldan yuvib, dazmollangan satin, barqut, shtapil, paxmoq, chit, junli matolar bo'lgani yaxshi. Hayvonlarni tayyorlovchi o'yinchoq uchun, tukli bamazey, sun'iy va tabiiy jun matolaridan foydalaniladi.

Tana yuz ko'rinishlarini tasvirlovchi qo'g'irchoq o'yinchoqlari uchun shifon, sun'iy tolali shoyi matolar. Yuz uchun och pushti, och jigar rangli matodan olinadi.

Kiyimlari uchun: rangli matolar;

Soch uchun: sun'iy iplar, viskoza, qismlarni biriktirishda 1-2 mm yumshoq simlardan o'yinchoqlarni jixozlashda, har- xil tugmacha, biser, tasma, lentachalar, shnurlar hamda eskiz tayyorlash uchun plastilin zarur. O'yinchoq ichini paxta, trikotaj chiqindilari, averlo tikishdan, chiqqan qirindilar yog'ochdan chiqqan qipiq bilan to'ldirish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlashga o'rgatish ishini nimadan boshlash kerak? Avvalo, katta tayyorlov guruh bolalarini igna ushlashdan igna to'g'nog'ichdan o'rinli foydalanishdan, so'ng eng oddiy chok turlarini tikishni o'rgatish ko'rsatish zarur. Chok turlarini o'rgatish uchun amaliy bir necha ish tavsiya etiladi. (Ro'molcha tikish, xaltacha, kitob uchun xatcho'p) bu esa bolalarni chok turlarni tikish malakasini egallashga sharoit yaratadi. Bolalar igna bilan ishlash malakasi hosil bo'lgandan so'ng, oddiy model tayyorlashga o'tiladi. Bolalar qo'lda tikish, kattaroq bolalar tikuv mashinada tikishlari uchun harakatlar ko'rsatiladi.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlash jarayoni quyidagi qisimlardan iborat: Mato tanlash, g'ijim bo'lak mato dazmollanishi oson, matoga andozani chizish, qismlarni bichish, tikish, ichini to'ldirish ustini jihozlash.

Qo'g'irchoq kiyimi chizmasi va andozasini tayyorlash, matoga ko'chirish.

Andoza kartondan tayyorlanadi. Bichishda mato ikkiga buklanadi, uning chap tomoniga andoza qo'yib, yaxshi uchli qalam bilan tayyorlanayotgan bo'lsa, andoza har bir bo'lak mato ustiga ipini qiyalab yo'nalgan tomoniga qo'yiladi. To'q mato bo'lsa, andoza oq yoki sariq rangli qalam bilan, och rangli mato bo'lsa qora rangli uchi yaxshi olingan qalamdan foydalaniladi.

Chizib olingan mato har tomonidan 0,5 sm chok uchun qoldirib, qirqiladi, so'ng qo'lda yoki mashinada tikiladi. Burchaklari o'ng tomonidan chiqariladi. Tayyor tikilgan forma metal tayoqcha yordamida o'tmas tomoni bilan o'ngiga ag'dariladi.

Agar o'yinchoq tabiiy jundan tayyorlanayotgan bo'lsa chok haqqi qoldiriladi, chetlari qalin ipda tikiladi. O'yinchoq titiluvchan mato (klenka, dermantin)dan bo'lsa chok haqi qodirilmaydi, o'yinchoq bichib bo'lgandan so'ng, ustki qismdan petlya choki bilan tikiladi.

Hayvon va qushlarni tikish quyidagi qoida bo'yicha: avval tana va qorin qismlar bir-biriga tikiladi. Forma ikki yarmi tayyor bo'lgandan so'ng ularni birga tikiladi.

Shakl o'ngiga ag'darilib, qismlar bir-biriga ko'rinmas chok bilan birlashtirib tikiladi. O'yinchoq ichi paxta yoki mayda mato qiyqimlari bilan to'ldiriladi oyoq qismlari esa tayoqcha yordamida to'ldiriladi. Texnik jarayoni bilan tanishtirilgandan so'ng o'yinchoq tayyorlashga o'tiladi.

O'yinchoq tayyorlanishning qiyinlik bosqichiga qarab ikki guruhga ajratiladi.

1-guruh (kichik bolalar) engil to'ldiriladigan o'yinchoq (tovuq, matreshka qo'g'irchog'i, pingvin, o'rdakcha, kuchukcha, filcha, quyoncha, ayiqcha, xo'tikcha, jirafa pastki qismi tikilgan qo'g'irchoq).



2- *guruh* qo'g'irchoq teatri uchun qo'g'irchoq personaji kuchukcha, ayiqcha, maymuncha, qo'g'irchoq, mushuk, sim sinch o'rnatilgan o'yinchoqlar bo'lishi mumkin.



Eslatma: Berilgan andoza qanday kattalikda bo'lsa shundayligicha tikilishi kerak.

O'yinchoqlar tayyorlash kattalar va bolalar uchun birdek qiziqarlidi. Bolalar uchun o'yin bo'lsa, kattalar uchun bolalar qalbiga yo'l topishdir. O'yinchoqlar yasash bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, tasavvurlarini yanada kengaytiradi, ijodiyotga qiziqishni tarbiyalaydi. Ular o'zlari yasagan o'yinchoqlarida o'zlarini ajoyib-g'aroyib istaklarini, muhabbatlarini, mehnatlarini, kuchlarini sarflaydilar. Bu esa ularda maqsadga intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, o'zaro yordam berish, mehnatsevarlik, e'tiborlilik, ma'suliyat va tartiblikni tarbiyalaydi.


Tayyorlangan o‘yinchoqlarni qo‘g‘irchoq teatrida, mazmunli-rolli o‘yinlarda, ertaklarda, hikoyalarni tayyorlashda qo‘l keladi. Shuning uchun kattalar bolalarga andozalarni tayyorlash tikish yo‘llarini tushuntirib berish zarur. O‘yinchoqlarni tayyorlashda har xil matolar qiyqimlaridan, eski kiyimlardan foydalanish mumkin. (chit, pahmoq, shtapel, trikotaj, junlimatolar, movut, eski telpaklar).

O‘yinchoqlar tikishda chok, yo‘rma chok, qoviq chok, bosma chok, sirtmoqsimon choklardan foydalaniladi.

Yumshoq oyinchoqlar tayyorlash texnologiyasi.

Ish uchun kerakli anjomlar:

- yumshoq flis (jigarrang va oq);
- to‘g‘nog‘ich;
- igna va ip;
- qaychi
- sun‘iy charm qiyqimi burun uchun;
- 2 ta qora munchoq ko‘zlar qorachig‘i uchun;
- sintepon yoki paxta.





Qo`g`irchoq qo`lqop tayyorlash texnologiyasi.

Ish uchun kerakli anjomlar:

- 1 juft qo`lqop;
- to`g`nog`ich;
- igna va ip;
- qaychi
- paxmoq qiyqimi soch uchun;
- 2 ta qora munchoq ko`zlar qorachig`i uchun;
- sintepon yoki paxta.



2. Yumshoq o'yinchoqlarning bola tarbiyasida ahamiyati.

To'g'ri tanlangan o'yinchoq - bu tarbiyaviy ahamiyati katta yo'l sanalib, bolani to'g'ri yo'lda tarbiyalashda ko'mak beradi. Ana shunday o'yinchoqni to'g'ri tanlash uchun har bir ota-ona bir necha savollarustida ozgina fikr yuritishlari lozim:

Bolaga nechta o'yinchoq kerak?

Uning yoshida qanday o'yinchoqlarni o'ynash lozim?

Yangi o'yinchoqni bola nima qiladi?

Oxirgi savol eng muhim sanalib, agar unga javob topsangiz qolgan ikkitasiga javob topish qiyinchilik tug'dirmaydi. O'yinchoq, mutaxassislarning tili bilanaytganda, funksional amal qilishi kerak. Faqat ko'rish uchun mo'ljallangan o'yinchoqlaringiz - befoydadir. Demak, bolaga chindan ham u o'ynaydigano'yinchoqlar zarur ekan.

Ikki yoshli bolajonga murakkab bo'lmagan, kattalarning harakatini eslatadigan o'yinchoqlar mos keladi. Bu masalan qiz bolalarga "qo'g'irchoq" -bola unga ovqat berishga urinadi, uxlatadi. Chunki bu harakatlar u uchun judatanishdir. O'g'il bola uchun misol tariqasida "yuk mashinasi" turidagi mashinalar, u bunday o'yinchoq yordamida turli kubiklarni, ilgariolingan o'yinchoqlarni bir joydan, boshqa joyga ortib olib boradi. Turli shaklchalar, ular yordamida bolalar qumda turli figuralarni yasaydilar.

E'tibor bergan bo'lsangiz, ushbu o'yinchoqlar bilan ma'lum voqealar bog'langan. Va bular bolaning umumiy rivojiga nihoyat katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolabunday harakatlarni amalga oshirar ekan, o'z kichik olamini yaratadi, u yerda o'z o'yinchoqlari bilan yashashga, ular haqida g'amxo'rlik qilishga qisman o'rganadi. Ikki-uch yoshlik bolalarning o'yinchoqlari ma'lum darajada katta hajmlarga ega bo'lishi, ortiqcha mayda-chuydalarsiz, oddiy tuzilishga ega bo'lishi lozim. Bu o'yinchoqlar haqiqiy qahramonlarning asl nushasiga o'xshashishari emas, izlanishlarga qaraganda bolalar bunday yoshda umumlashtirilgan, qandaydir o'xshatilgan o'yinchoqlarni yaxshiroq qabul etar

ekanlar. Bu esa uning umumiy rivojlanishida, asl narsani nushadan ajratishga, u o'yinchoq ekanligini tezroq anglab olishda ko'maklashadi. Bu esa bola idrokining tez va to'g'rishakllanishida yaxshi taraflardan biri hisoblanadi.

Uch-to'rt yoshli bolalar uchun bir yo'nalishga qaratilgan o'yinchoqlar, masalan - "vrachning maxsus asboblari", "sartaroshlik", "oshxona anjomlari" va hokazo. Ushbu davrdagi bolalar katalarni o'xshatishda aynan mana shunday o'yinchoqlardan foydalanib, ularni taqlidi muvaffaqiyatli ekanligini, o'zlari ham bilmaydilar. Va buning uchun kerakli o'yinchoq asboblari va anjomlar zarur bo'ladi.

Shunday o'yinchoqlar mavjud-ki, ular o'ynash bilan bir qatorda o'rgatuvchi taraflarga ham ega. Ikki-uch yoshli bolalar uchun bunday o'yinchoqlar nihoyat muhimdir. Bola uchun o'yinchoqning funkciyalari nihoyat qiziqarli tuyuladi va uuni juda uzoq vaqt davomida o'ynashiga olib keladi. Dumaloqlarni bir-biriga solish va qayta chiqarish, turli shakllar chiqariladigan kubiklarni qayta-qayta ichiga solib, yana chiqarish, turli shaklchalarga qum solish hamda to'kish va Bunday o'yinchoqlarni o'ynaganda bolaning harakatning bir maqsadga qaratilishi, avval qo'llar bilan shakllarni his etish, so'ng ko'zlar bilan uning shakli, rangi chamalash shakllanadi, o'zaro taraflari solishtiriladi.

Kattaroq bolajonlarga aqliy o'yinchoqlarni to'g'ri tanlash nisbatan qiyinroqdir. Bola yangi o'yinchoqdan nimani o'rganadi, shu taraflarni yaxshilab o'ylab ko'ring. Masalan, agar biron bir narsani yasashni yaxshi ko'rsa, unda konstruksiya ko'rinishidagi o'yinchoqlarni taklif etib ko'rishingiz mumkin.

Qiziqqon bolajonlarga hayolni bir joyga jamlaydigan o'yinchoqlarni xarid eting. Bu stol atrofida o'ynaydigan o'yinlar yoki konstrukciyalar bo'lishi mumkin. Agarda bolaga bunday o'yinchoqlar yoqmasa, uni zinhor majburlamang. Bolabaribir bola, u o'yinchoqdan zavqlanishi lozim.

Bolaning sevimli o'yinchog'i bo'lishi - bu juda ham ijobiy holatdir. Anashunday bog'liqlikni, o'yinchoqlariga bo'lgan e'tibor va mehnishakllantirishga harakat qiling. Bolani o'z o'yinchoqlarini avaylashigao'rgating. Singan va buzilgan o'yinchoqlarni bola bilan birgalikda tuzatishga harakat qiling. Ularni tashlab

yuborgandan ko'ra, bolani yana bir qiziqarli mashg'ulotga jalb eting. Yangi qo'g'irchoq yoki mashina sotib olishga hali ko'pulgurasiz. Bolaga yangi o'yinchoqni faqatgina uning rivojlanishini boyitish maqsadiga aylantirishga harakat qilishingizni maslahat qilgan bo'lar edik.

Yana bir muhim taraflardan biri bu - o'yinchoq,ayniqsa qo'g'irchoqlarning yuzlari, ma'lum hissiyotni aks ettirishlari lozim.Masalan: shodon chehrali yoki hafa, qayg'uli kayfiyatni aks ettiruvchiqo'g'irochoqlar. Imkon qadar umuman hissiz qo'g'irchoqni xarid etmang. Bola o'yinchoqning kayfiyatini anglab, u bilan o'ynash uchun turli holatlarni o'ylabtopadi.

Bola unadi-o'sadi. Uning o'yinchoqlari ham yoshiga mos ravishda murakkablashib borishi lozim. Uch yoshlarda bolalar o'zlarini kattalarga o'xshatishni boshlaydilar. Ular o'zlari ona, shofer yoki doktor bo'lishga urinadilar. To'rt yoshlarga kelib esa, o'zaro rollar bilan almashadilar. Birgalikda o'ynash hissi shakllanadi. Bunday davrda qaysi o'yinchoqlarni tanlash kerak? O'yin syujetlarini va turli-tuman voqealarni o'ylab topish uchun mo'ljallangan o'yinchoqlar talab etiladi. Voqealarni to'qib chiqarish, kattalarga taqlid qilish, muhim ish bilan band insonlarni o'xshatishga ko'mak beradigan o'yinchoqlar o'rinli deb hisoblanadi.

Bolalar uchun 10 ta rivojlantiruvchi o'yinchoqlar.

Bola dunyoga kelgan kunidanoq turli o'yinchoqlar nafaqat uni xursand qilishga, balki u barkamol rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Biz eng yosh bolalar uchun eng yaxshi o'yinchoqlar to'plamini tuzdik.



Osma shaqildoq, marjonlar, mobili *0 dan 3 oylikkacha bo'lgan bolalar uchun*

Ko'rish va eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, diqqatni bir joyga jamlashga o'rgatadi, shuningdek, ijtimoiy-ruhiy rivojlanishiga ko'maklashadi. Keyinroq bola ularga talpinishni boshlaydi, "qo'l-ko'z" harakatlarini boshqarishni o'rganadi.

Shaqildoq 0 dan 12 oylikkacha bo'lgan bolalar uchun

Mayda motorikani, diqqatni jamlashni, lokomotorikani (harakatlarni umumiy jamlashni) rivojlantiradi.

Piramida 6 oydan oshgan bolalar uchun

Sensomotor koordinatsiyani shakllantirishga, “qo‘llar va ko‘zlar” harakatini muvofiqlashtirishga yordamlashadi. O‘yinchoqning tarkibiy qismlaridan foydalanib, bolani shakl, rang va hajm haqidagi asosiy tushunchalar bilan tanishtirish mumkin.

Bir-birining ichiga tushadigan o‘yinchoqlar 6 oydan oshgan bolalar uchun

Bunday o‘yinchoqlarning asosiy turlari — idishlar va ramkalar. O‘yinchoqning tarkibiy qismlarini birlashtirar ekan, bola buyumlarning hajmi va shaklini solishtirishni, qo‘l va ko‘z harakatlarini boshqarishni o‘rganadi. Bu o‘yinchoqlar, shuningdek, fikrlash va tasavvur qobiliyatini rivojlantiradi.

Obrazli o‘yinchoqlar — qo‘g‘irchoqlar, hayvonlar va h.k. 12 oydan oshgan bolalar uchun

Ular bolada shaxs tushunchasi rivojlanishiga, ijtimoiy-ruhiy rivojlanishga ko‘maklashadi, bola insonlar olamiga “qo‘shilishiga” yordam beradi, o‘yinning syujet liniyasini o‘ylab topar ekan, bolaning tasavvuri va xayol qilish qobiliyati rivojlanadi.

Rivojlantiradigan yumshoq kitoblar 6 oydan oshgan bolalar uchun



Bolalarda mayda motorikani rivojlantiradi, shakl, rang va hajm tushunchasi bilan tanishtiradi. Mavzuga qarab, bunday kitobchalar bolalarni tabiat hodisalari, hayvonlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqa ko‘plab mavzular bilan tanishtiradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Yumshoq o'yinchoqlarni bichish va tikishni bilasizmi?
2. Yumshoq o'yinchoqlarni chizmaga qarab andoza tayyorlay olasizmi?
3. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash texnologiyasini aytib bering?
4. Bolalari uchun qanday yumshoq o'yinchoqlar tayyorlay olasiz.?
5. Katta guruh bolalari qanday o'yinchoqlar tayyorlashga qiziqadilar?
6. Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlashga qo'yilgan pedagogik talablar?
7. O'yinchoqlarning bola tarbiyasida ahamiyati?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupova P. Maktabgasha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvshi. 1993.
2. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgasha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
3. Sodiqova Sh.A. Maktabgasha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
4. N.Kayumova. Maktabgasha pedagogika. T.: TDPU 2013.
5. Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. "Sho'lpon" T.:2010y.
6. Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. D.Azimova. Ustahonada amaliy mashg'ulot. "Musiqqa" T.:2010y.
7. O.Xasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: "Aloqashi", 2007 y.
8. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma. T.:, 2001.
9. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgasha pedagogika".- T., "Ma'naviyat". 2013
10. Sh.Shodmonova. Maktabgasha ta'lim pedagogikasi. Fan va texnologiya. - T.:, 2008.